

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ELMURATOV RASHIT XOJAMURATOVICH

**TARIXIY RIVOYATLAR TIPOLOGIYASI
(qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida)**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Elmurotov Rashit Hojamuratovich

Tarixiy rivoyatlar tipologiyasi (qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori
materiallari asosida)..... 3

Елмуратов Рашит Хожамуратович

Типология исторических преданий (на материале каракалпакского,
туркменского и английского фольклора)..... 25

Elmurotov Rashit Hojamuratovich

Typology of historical legends (on the material of Karakalpak, Turkmen
and English folklore)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ELMURATOV RASHIT XOJAMURATOVICH

**TARIXIY RIVOYATLAR TIPOLOGIYASI
(qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida)**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil2656 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog' davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.aknuk.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Keruenov Turganbay Arazmedovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qayumov Olim Sadiriddinovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Uteniyazov Polat Jumanyozovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «05» 07 soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230100, Nukus shahri, A. Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk.gumanitar@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin. (4 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A. Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «21» 06 kuni tarqatildi.
(2024-yil «21» 06 dagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).



A.I. Alniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.M. Bekimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), katta ilmiy xodim

K.S. Palimbetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida ma'lum bir millatning estetik idealini bayon qilishda epik janrlardan biri bo'lgan rivoyatlarning o'zni, ularning janr sifatida taraqqiyot tendensiyalari, obrazlar tizimi va badiiyati mutaxassislarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Rivoyatlarning folklor nasrida xalq tarixi bilan bevosita bog'lanishi va uni ma'lum darajada real tasvirlashi jihatidan baholanishi folklorshunoslikda zarurat hisoblanadi. Shu sababli rivoyatlarning janriy o'ziga xosligi, xalq prozasining afsona, ertak, naql, maqol, doston va boshqa epik janrlari bilan mushtarak hamda farqli jihatlari, sujetida turmush voqealari real tasvirlanishi, poetik kompozitsiya va motivlar tuzilishi, obrazlar tizimi, tasvirlash usuli, tili bilan bog'liq masalalarga oydinlik kiritish, uni nazariy jihatdan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo folklorshunosligida mifologik, tarixiy, "sayyor sujetlar" nazariyasining maktablari tomonidan mif, afsona, rivoyat, ertak kabi epik janrlarning genezisi va tasnifi, badiiyati bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy qarashlarning yangilanishi epik janrga mansub sujetlarni o'zida aks ettirgan tarixiy rivoyatlarning genezisi, o'ziga xos xususiyatlari, kompozitsion tuzulishi, tasniflanishi xususidagi qarashlarni yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Bu kabi yangi ilmiy manbalar tahlili asosida chiqarilgan xulosalar natijasida tarixiy rivoyatlarning g'oyaviy-mavzu jihati, kompozitsion tuzulishi, tarixiy shahslar obrazlari, sujet tadrijiy rivoji, poetikasini qiyosiy tahlil qilish hamda tarixiy voqealarga oydinlik kiritish imkonini berdi. Folklorshunoslikning bugungi taraqqiyot darajasi tarixiy-genetik jihatdan mushtarak negizga borib taqaladigan rivoyatlarni zamonaviy ilmiy-nazariy kontsepsiyalar asosida tahlil etish natijasida qoraqalpoq, turkman va ingliz tarixiy rivoyatlarining o'ziga xosligini hamda farqli jihatlarni oydinlashtirish zaruratini yuzvaga keltirmoqda.

Mustaqil Yangi O'zbekistonda fan, madaniyat, innovatsiya, ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, folklor merosini to'plash, nashr qilish, ularning o'ziga xos milliy mazmunini, estetik qiyofasini teran o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Shu bois hozirgi folklorshunoslikda xalq og'zaki ijodi asarlarini jahon va turkiy xalqlar folklori bilan qiyosiy-tipologik aspektida bugungi ilg'or ilmiy-nazariy konsepsiyalar asosida tahlil qilish orqali tarixiy rivoyatlardagi o'xshash va farqli jihatlarni ochib berish zarurati maydonga kelmoqda. "Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk donishmandlarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish hamda keng targ'ib qilish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning yaxshi an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda"¹. Ushbu ma'naviy tiklanish jarayonida o'tmish folklor janrlarini, jumladan, tarixiy rivoyatlarni qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik jihatdan yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2017-yil, 25-may.

chuqur o'rganishga e'tibor ortib bormoqda. Shu sababli jahon xalqlari tarixida muhim o'rin tutgan tarixiy rivoyatlarni o'zbek, qoraqalpoq, turkman va genetik jihatdan yaqin bo'lmagan ingliz xalqi folklori misolida tadqiq etish, ularning genezisi va tipologik xususiyatlarini keng ko'lamda o'rganishga yo'l ochildi. Kelajagimiz bo'lgan hozirgi yosh avlodni ota-bobolarimizning ajoyib fazilatlari hamda betakror milliy qadriyatlari ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy rivoyatlarni turkiy xalqlar folklori, ayniqsa, o'zbek, qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlar bilan qiyosiy tadqiq qilish va tipologik xususiyatlarini belgilash xalqimizning badiiy tafakkur evolyutsiyasini aniqlash va maxsus o'rganishga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi F-4789-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2018-yil 26-apreldagi 304-son "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni huquqiy, ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Masalaning o'rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida tarixiy rivoyatlarni ilmiy asosda o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bu borada V.K.Sokolova, V.Y.Propp, S.A.Shtirkov, V.K.Smirnova, V.P.Anikin, L.E.Eliasov, V.E.Gusev, N.I.Kravsov, S.G.Lazutin, Y.G.Kruglov, L.S.Tolstova kabi rus, Georges, Robert, Sh.De Koster, K.Briggs, B.Eats,

S.A.Matveyev kabi folklorshunoslar ingliz rivoyatlarining genezisi va poetikasi, ularning janriy xususiyatlari, tasnifi masalalari bo'yicha o'z qarashlarini ilgari surgan².

O'zbek folklorshunosligida³ U.Jumanazorov, Z.X.Jumayev, K.Imomov, M.Abdullayeva, B.Sarimsoqov, Sh.Ishniyozova va boshqalarning ishlarida rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Qozoq folklorshunosligida⁴ S.A.Qasqabasov, turkman folklorshunosligida⁵ A.Baymiradov, qoraqalpoq folklorshunosligida⁶ N.Dauqarayev, Q.Ayimbetov, Q.Maqsatov, S.Bahadirova, T.Keruenov, I.Allamberganova va boshqalarning ishlarida rivoyatlarning janriy xususiyatlariga oid fikrlar bildirilgan. Mazkur ishlarda har bir xalqning milliy folkloridagi rivoyatlar, jumladan, tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Biroq bugungi kunga qadar qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlar qiyosiy-tipologik aspektda maxsus o'rganilmagan. Bu esa tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularda real voqealar ifodasi, kompozitsion va badiiy xususiyatlari, yetakchi motivlarning mavzuviy tiplari, genezisi, obrazlar tizimi, badiiy estetik vazifalarini qoraqalpoq, turkman va ingliz tarixiy rivoyatlari asosida qiyosiy tahlil

² Соколова В. К. Русские исторические предания. Москва: Наука, 1976; Пропп В.Я. Фольклор и действительность. – М.: 1976; Штырков С. А. Исторические предания. <http://folk.spbu.ru>; Смирнова В.К. О некоторых типах исторических преданий // История, культура. Фольклор и этнография славянских народов. – М., 1968; Аникин В.П. Художественное творчество в жанрах несказочной прозы // Русский фольклор. Русская народная проза. № 13. – Л., 1972; Элиасов Л.Е. Русский фольклор Восточной Сибири. Ч.11. – М., 1966; Гусев В.Е.. Эстетика фольклора. – Л.: Наука, 1967; Кравцов Н.И., Лазутин С.Г. Русское устное народное творчество. – М.: Высшая школа, 1983; Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество. – Л.: Просвещение, 1983; Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984; Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Наука, 1970; Georges Robert, Owens Michael. Folkloristics. – United States of America: Indiana University Press, 1995; Де Костер Ш. Легенда об Уленшпигеле (перевод с английского Н.М.Любимова). – М.: Терра, 1997; Brigga K. British folk-tales and legends. – London and New York, 2002; Yeats W.B. Fairy and Folk Tales of Ireland. – Bounty, 2004; Матвеев С.А. Английские легенды (English folktales and legends). – М., 2014.

³ Жуманазоров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991; Шу муаллиф. Тарих, афсона ва дин. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990; Жумаев З.Х. Ўзбек халқ ривоятлари (ўрганилиши, ўзига хос хусусиятлари ва таснифи): фил.фан.н. диссер. – Тошкент: ЎЗРФА Ўзбек тили ва адабиёти институти, 2005. – 152 б.; Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикasi. – Тошкент: Фан, 2008; Абдуллаева М. Тарихий насрда тарихий ривоятлар таҳлили. <https://www.researchgate.net/publication>; Саримсақов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981; Ишниёзова Ш. Ҳозирги замон ўзбек ва қирғиз насрида афсона ва ривоятларнинг қиёсий-типологик таҳлили. Канд. дисс. автореферати. – Самарқанд, 1996; Имомов К. Ўзбек халқ ривоятларининг жанр белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2005, № 1.

⁴ Қасқабасов С.А. Казахская сказочная проза. – Алма-ата: Наука, 1990.

⁵ Баймирадov А. Түркмен фольклор прозасының тарыхы эволюциясы. – Ашхабад: Ылым, 1982; Шу муаллиф. Ривоятларда тарыхы шахслар. Ашгабат, 1992.

⁶ Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы. 2-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. – 184-б.; Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988.; Мақсетов Қ. Қарақалпақ халық көркем аңызкеи дөретпелери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996; Мақсетов Қ. Қарақалпақ халқының көркем аңызкеи дөретпелери. – Нөкис: Билим, 1996. – 212-б.; Бахадырова С. Қарақалпақ халық прозасы: миф, әпсана, аңыз // ӨзРИАҚҚБ Хабаршысы. – Нөкис, 2007. – №1. – Б. 107–108; Бахадырова С., Мамбетназаров Қ. Қарақалпақ аңызлары, әпсаналары хэм шешенлик сөзлери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992; Керуенов Т. XIX әсир қарақалпақ поэзиясында мифлер хэм аңызлардың колланылыўы. Докт.дисс. Нөкис, 2016. – Б. 34-35; Алламбергенова И. Қарақалпақ халқ ривоятлари (жанрий ўзига хослиги, таснифи). Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Тошкент – 2018; Шу муаллиф: К вопросу жанровых особенностей и классификации каракалпакских преданий // Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. – № 3, 2011. – Стр. 159.

qilish, o'ziga xos hamda mushtarak belgilarini aniqlash va monografik aspektda o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Turkiy adabiyotning taraqqiyot tendensiyalari" hamda "Turkiy xalqlar folklor janrlari poetikasi va uning tadqiq qilinishi" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq, turkman va ingliz folklorida tarixiy rivoyatlarning o'ziga xosligi, tadqiq qilinishi, real obrazlar, tarixiy shaxslar ramziy talqini, motivlar, sujet va kompozitsiya, badiiylik masalalarini qiyosiy asosda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va turkiy folklorshunoslikda tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi qarashlarni tarixiy-tipologik nuqtayi nazardan o'rganish;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarda real haqiqatga asoslangan va tarixiy shaxslar bilan bog'liq voqealarning og'zaki xabar berish shaklida bayon etilishi sababli ularning xalq prozasiga bog'liq epik janrlardan biri ekanligini qiyosiy aspektda dalillash;

rivoyatlardagi real obrazlar, tarixiy shaxslar siymosining badiiy ifodasini qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi poetik transformatsiyalar qiyosi orqali aniqlash;

turkiy va ingliz folklori rivoyatlaridagi motivlarni qiyosiy tahlil qilish asosida tarixiy shaxslar obrazining genetik asoslarini yoritish;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori rivoyatlarining sujet tizimiga ko'ra tematik tasnifini amalga oshirish;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori rivoyatlari sujetida uchraydigan yetakchi an'anaviy motivlarning tiplarini aniqlab, ularning tarixiy asoslarini qiyosiy ochib berish;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarni qiyosiy-tipologik tadqiq qilish orqali ularning obrazlar tizimini real obrazlar tashkil qilishini asoslash hamda o'ziga xos belgilarini aniqlash;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklorida tarixiy rivoyatlarning kompozitsion tipologiyasini qiyosiy tahlillar asosida oydinlashtirish;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy vositalar hamda ularning poetik vazifalarini qiyosiy tahlillar orqali ochib berish.

Tadqiqotning obyektini qoraqalpoq folklorining 100 jildligida keltirilgan rivoyatlar, tadqiqotchining dala tadqiqotlari davomida yozib olingan qoraqalpoq tarixiy rivoyatlari, "Tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar bilan bog'liq rivoyatlar" (Ashhabod, 2005), "Turkman shaharlari haqida rivoyatlar" (Ashhabod, 2004), "Maxtimquli haqida rivoyatlar" (Ashhabod, 2014), "Rivoyatlarda tarixiy shaxslar" (Ashhabod, 1992) to'plamlaridagi turkman rivoyatlari, ingliz folklori bo'yicha internet materiallari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy-genetik asoslari, mavzuviy turlari, motiv va obrazlar tipologiyasi, kompozitsiyasi, bayon usuli va badiiy vositalarning kontekstdagi semantik vazifalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik, struktur tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklorshunosligida tarixiy rivoyatlar o‘ziga xos voqeabandlik xususiyatiga ko‘ra epik janrlardan biri ekanligi, real voqealar asosiga qurilishi hamda bosh qahramonlarning tarixiy shaxslar bilan bog‘liqligi aniqlangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori tarixiy rivoyatlari strukturasi tarixiy-real voqealar bilan aloqador sujet va motivlarning qo‘llanilishida tarixiy shaxslar siymolari bilan bog‘liq obrazlarning folklor asarlaridagi epik janrga mansub shakliy-kompozitsion jihatlari baholanib, ularning o‘ziga xos afsona va rivoyatlarining folklor janrlariga oid boshqa xarakterdagi folklor asarlari, xususan, afsona va ertak, mifologik afsonalardan farqli jihati va bugungi kunga qadar lokal xususiyatlarini saqlab kelishi kabi janriy va tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xos ijro usuli, tuzulishi kabi shakliy xususiyatlari oydinlashtirilgan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori tarixiy rivoyatlarida real obrazlar, tarixiy shaxslar ramzining badiiy talqini va sujet tizimi orqali ularning mazkur folklor epik asarda badiiy obraz-ramziy timsolga aylanganligi ochib berilgan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xos obrazlilik va badiiylikka ega bo‘lishida ramziy-simvol, metafora, o‘xshatish, epitet, jonlantirish, tazod singari poetik va lingvopoetik bayon qilish vositalarining muhim poetik o‘ringa egaligi, ularda go‘zallikni vujudga keltiradigan, o‘quvchini ta’sirlantiradigan omillardan – adabiy shakl hodisasi hamda struktural-semantik kabi badiiy-estetik vazifalari va poetik asoslari belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq va turkman xalqlari uzoq vaqt qo‘shnichilikda yashab, o‘zaro do‘stona munosabatda turmush kechirgani sababli ularning folklorida umumiy sujet va motivlarga ega epik asarlar, jumladan, tarixiy rivoyatlarning paydo bo‘lganligi aniqlangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallarining qiyosiy tadqiqi orqali tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar bilan bog‘liq tarixiy rivoyatlarning genezisi va evolyutsiyasi aniqlangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklorida tarixiy rivoyatlar sujeti, motiv va obrazlarining badiiy talqini orqali ularning mif, afsona, ertak va boshqa janrlar bilan o‘xshash va farqli tomonlari asoslangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarning sujet va kompozitsion tuzilishi qiyosiy tahlil qilingan va ularning sujet tipologik belgilari aniqlangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlar poetikasi qiyosiy tahlilga tortilib, ularning badiiy o'ziga xosliklari belgilab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarning shakllanishi, ularning keyingi evolyutsiyasi, mif, afsona, ertaklardan farqli jihatlari, tarixiy voqea va tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lib, axborot berish xususiyatiga egaligi, og'zaki shaklda rivojlangani jahon va turkiy folklorshunos olimlarning ilmiy konsepsiyalari va nazariy qarashlari asosida qiyosiy o'rganish natijasida aniqlangani, tarixiy rivoyatlar bo'yicha tahlillar, xulosalar qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik, struktur tahlil metodlariga asoslanganligi, nazariy qarashlar va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarni qiyosiy tahlilga tortish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari, sujet, kompozitsion qurilishi, motivlari, badiiyati va tipologiyasining aniqlanganligida, jahon va turkiy folkloridagi tarixiy rivoyatlarning mushtarak janriy xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan belgilanganligida, natijalardan epik ijodning milliy xususiyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida o'qitiladigan xalq og'zaki ijodi, adabiyotshunoslik va folklorshunoslik fanlaridan darslik, o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda material sifatida foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida tarixiy rivoyatlar tipologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklorshunosligida tarixiy rivoyatlar o'ziga xos voqebandlik xususiyatiga ko'ra epik janrlardan biri ekanligi, real voqealar asosiga qurilishi hamda bosh qahramonlarning tarixiy shaxslar bilan bog'liqligi haqidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilgan "Qoraqalpoq og'zaki nasri (janrlar tuzilishi, genezisi, obrazlar tizimi, sujet va motivlari, poetikasi)" (2021-2023) mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 4-avgustdagi 306/1-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq folklorida tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos janriy xususiyatlari belgilangan, sujeti, kompozitsiyasi, obrazlar tizimi jahon va turkiy xalqlar folklori bilan qiyoslanib, tipologik o'xshashliklari aniqlangan, tarixiy rivoyatlar matnlarini tahlil qilishning metodologik tomonlari yangilanishiga erishilgan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori tarixiy rivoyatlari strukturasi tarixiy-real voqealar bilan aloqador sujet va motivlarning qo'llanilishida tarixiy shaxslar siymolari bilan bog'liq obrazlarning folklor asarlaridagi epik janrga mansub shakliy-kompozitsion jihatlari baholanib, ularning o'ziga xos afsona va

rivoyatlarining folklor janrlariga oid boshqa xarakterdagi folklor asarlari, xususan, afsona va ertak, mifologik afsonalardan farqli jihati va bugungi kunga qadar lokal xususiyatlarini saqlab kelishi kabi janriy va tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos ijro usuli, tuzulishi kabi shakliy xususiyatlari, real obrazlar, tarixiy shaxslar ramzining badiiy talqini va sujet tizimi orqali ularning mazkur folklor epik asarda badiiy obraz-ramziy timsolga aylanganligiga oid ilmiy-nazariy qarashlardan I.V.Savitskiy nomidagi badiiy san'at muzeyida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 18-iyundagi 2-04/874-son ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy shaxslar, buyuk siymolar, baxshi-jirovlar haqida xalq orasida saqlanib qolgan ma'lumotlarning rivoyat asosida paydo bo'lganligi va ularning jahon va turkiy folklorshunoslikda rivoyat shaklida yaratilganligi, tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari tipologik asosga ega ekanligini dalillangan;

qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos obrazlilik va badiiylikka ega bo'lishida ramziy-simvol, metafora, o'xshatish, epitet, jonlantirish, tazod singari poetik va lingvopoetik bayon qilish vositalarining muhim poetik o'ringa egaligi, ularda go'zallikni vujudga keltiradigan, o'quvchini ta'sirlantiradigan omillardan - adabiy shakl hodisasi hamda struktural-semantik kabi badiiy-estetik vazifalari va poetik asoslariga oid ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining "Tilga e'tibor – elga e'tibor" dasturlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2023-yil 5-iyuldagi 05-22/334-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan hamda milliy meroslarimizning xalqlar do'stligini mustahkamlashda, madaniyat va fan sohalarida davlatlararo munosabatlarni, hamkorlikni bog'lovchi vosita vazifasini bajarganligi yoshlar ongiga chuqur singdirilgan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy konferensiya, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning ilmiy natijalarini nashr qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 7 maqola respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning «**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusining o'rganilish darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy

qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e'lon qilinishi, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va o'rganilishi**» deb nomlanib, ikki bo'limni o'z ichiga oladi. Bobning «**Tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va tadqiq qilinishi**» deb nomlangan birinchi bo'limida tarixiy rivoyatlarning jahon va turkiy xalqlar folklorshunosligida o'rganilishi, ularning o'ziga xos tipologik xususiyatlari qiyosiy aspektda aniqlangan. Tarixiy rivoyatlarning mavzuviy guruhlarini aydinlashtirilgan.

Rivoyatlarda voqea-hodisaning real turmush bilan bog'liq holda bayon etilishi poetik qonuniyat darajasiga yetkazilgan. Shu sababli rivoyatlarda real haqiqatdan foydalanish yetakchi qoidaga aylangan. Jahon va turkiy xalqlar folklorida rivoyatlar o'ziga xos obrazlilik va badiiyatga ega bo'lib, bu holatni yuzaga chiqaruvchi muayyan poetik ifoda vositalari, lingvopoetik jihatlar, kompozitsion elementlar mavjud va ularni qiyosiy aspektda o'rganganimizda tipologik o'xshashlikni ko'rish mumkin.

Rivoyatlar o'zlarining mazmuni, mavzusi jihatidan xilma-xil. Biroq ularni tasniflashda jahon va turkiy folklorshunoslikda yakdillik mavjud emas. Masalan, o'zbek folklorshunosi U.Jumanazarov rivoyatlarni mazmuni, mavzusi bo'yicha uch turga bo'lib ko'rsatadi: 1) etnonimik rivoyatlar – turli xalq va urug'larning paydo bo'lishi haqidagi; 2) tarixiy rivoyatlar – tarixiy shaxs yoki tarixiy voqea yoxud ikkovi haqida ham hikoya qiluvchi rivoyatlar; 3) toponimik rivoyatlar – yer-suv, makon atamalarining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar⁷.

Qoraqalpoq folklorshunosligida olimi I.Allamberganova qoraqalpoq xalq rivoyatlarini asosan, besh turga bo'lib tadqiq qilgan. Ular etnonimik, toponimik, tarixiy, xalq qo'shiqlari haqidagi va diniy rivoyatlar⁸.

Rivoyatlarning ayrim turlarida, ya'ni tarixiy rivoyatlarda tarixiy voqealar, ma'lum shaxs, payg'ambar, podsho, vazir, shahzoda va boshqalar haqida ma'lumot beriladi va ularning obrazi badiiy aks ettiriladi.

Rus folkloridagi tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos tiplarini tadqiq qilgan olimi V.K.Sokolova “Русские исторические предания” nomli tadqiqotida rus folklorida tarixiy rivoyatlarning paydo bo'lishi davlatchilikning kuchayishi va milliy rivojlanish bilan bog'liq ekanligini bayon etadi. U tarixiy rivoyatlarning o'ziga xos tabiati haqida so'z ketganda uni to'rt guruhga ajratib ko'rsatish ma'qulligini ko'rsatadi:

1. Hayotiy voqealar asosida yuzaga kelgan yoki tarixiy shaxslarning qiyofasi va faoliyatining mohiyatini ochib beruvchi rivoyatlar (xalq tasavvuriga ko'ra).
2. Mahalliy obyektlar va nomlarning kelib chiqishini tarixiy voqealar va odamlar bilan bog'lab izohlaydigan rivoyatlar.
3. Tarixiy voqealar diniy qarashlar nuqtayi nazardan izohlanadigan, mo'jiza motivlari mavjud bo'lgan rivoyatlar.
4. Tarixiy shaxslarga bog'langan afsonaviy sujetlar⁹.

⁷ Жуманазоров У. Ўзбек фольклори ва тарихи воқелик. – Тошкент: Фан, 1991 – Б.179

⁸ Алламбергенова И. Қорақалпоқ халқ ривоятлари (жанрий ўзига хослиги, таснифи). Дисс. Автореферати. Тошкент, 2018. – Б. 23.

⁹ Соколова В. К. Русские исторические предания. Москва: Наука, 1970. – С. 275.

Ingliz folklorida “Afsona – bu tarixiy xarakterga ega deb taxmin qilingan, ammo asosi bo‘lmagan hikoyalardir. Misol tariqasida Qirol Artur, Qora Soqol va Robin Gud afsonalarini keltirish mumkin. Qirol Richard kabi tarixiy shaxslarning tarixda bo‘lganligiga shubha bo‘lmasa-da, Qirol Artur haqida yaratilgan ko‘plab hikoyalar tufayli u afsonaviy shaxsga aylangan.

Ko‘plab hikoyalarni yaratishga ilhomlantiruvchi yoxud so‘nmas ahamiyat va shuhratga ega og‘zaki ijod namunalari ham afsona deyish mumkin. Afsona, shuningdek, hikoyalar to‘plamini yoki doimiy ahamiyatga ega bo‘lgan, shon-shuhratni ilhomlantiradigan har qanday ijod mahsulini anglatadi. Afsona og‘zaki tarzda yetib keladi, ammo vaqt o‘tishi bilan rivojlanishda davom etadi. Qadimgi adabiyotning aksariyati dastlab og‘zaki shaklda bo‘lib, keyinchalik yozib olinguniga qadar epik afsonalarda qayta ijro etilgan. Ularga m.av. 800-yilga mansub mashhur yunon so‘z ustasi Gomerning dostonlari “Iliada” va “Odissey” (“Iliad” and “Odyssey”), fransuzlarning m.av. 1100-yillardagi “Roland haqida qoshiq” (“Shanson de Roland”) dostonlarini kiritish mumkin”¹⁰.

Jahon va turkiy folklorshunoslikda tarixiy rivoyatlarning tadqiq qilinishi borasidagi ilmiy ishlarning qiyosiy tadqiqi, ularning o‘ziga xos janriy-mazmuniy xususiyatlari haqida bildirilgan fikrlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, ularda asosan tipologik belgilari yoritilgan. Shu sababli tarixiy rivoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortildi va tarixiy shaxslar ishtirok etgan rivoyatlar bir qancha turlarga bo‘lib o‘rganildi.

1. Payg‘ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar obrazi aks etgan rivoyatlar (“Házreti Aliydiń pushaymanı”, “Házreti Áliydiń ashıwı”, “Házreti Áliydiń jaqsılıǵı”, “Súlaymannıń jarganatqa jaqsılıǵı”, “Súlayman payǵambardıń sinawı”, “Payǵambar hám hákke” va b.);

2. Hukmdor yoki lashkarboshi, jangchi obrazi aks etgan rivoyatlar (“Muralı-Sher hám Sultan Súyin tuwralı sóz”, “Maman biydiń túsi”, “Maman biydiń hámelden túsiwi”, “Esengeldi menen Aydos biy”, “Aydos biy”, “Ernazar Alakóz - Nóker”, “Ispandiyar xan”, “Arastudıń Iskenderge násiyati” va b.);

3. Mashhur tabiblar obrazi aks etgan rivoyatlar (“Hákim Ulıqpannıń balasın úylendiriwi”, “Aplatun táwipligi hám Alastunnıń tapqırlıǵı haqqında” va h.k.);

4. Tarixiy rivoyatlarning bir qismi shajara – urug‘, qavmlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning kelib chiqishini tarixiy shaxs yoki tarixda yashagan odam bilan bog‘lab izohlaydigan, shajara, tarixiy siymolar obrazlari aks etgan rivoyatlar (“Qıpshaqlar” va b.);

5. Shoir va baxshi obrazi aks etgan rivoyatlar (Alisher Navoiy, Bobur, Maxtumquli, Ajiniyoz, Berdaq va boshqalar haqida aytilgan rivoyatlar);

6. Tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq paydo bo‘lgan yer-makon nomlari, qal‘alar haqidagi rivoyatlar (“Nur ata”, “Nazlımxan Sulıw”, “Xalqabad” va b.).

Bobning «**Rivoyatlarda real obrazlar, tarixiy shaxslar siymolarining badiiy ifodasi**» deb atalgan ikkinchi bo‘limida tarixiy rivoyatlarning paydo

¹⁰ The Meaning of Myths, Folklore, Legends, and Fairy Tales. <https://www.thoughtco.com/defining-terms-myth-folklore-legend>

bo'lishida asosiy omillar, an'anaviy motivlar, obrazlar, sujet va boshqa unsurlar qiyosiy tahlilga tortilib, rivoyatlarning obrazlar tizimida payg'ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar, real shaxslar, podsholar, hukmdorlar, sarkardalar, askarlar, mard jangchilar, mashhur tabiblar obrazlarining tutgan o'rni, shuningdek, shajara-urug', qavmlarning kelib chiqishida tarixiy shaxslar, buyuk siymolar, atoqli baxshi va shoirlar obrazi alohida o'rin egallagani va o'ziga xos epik qahramon sifatida tasvirlangani aniqlandi.

Manbalardan ma'lum bo'lganidek, og'zaki va yozma asarlarda payg'ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar obrazini tasvirlash o'ziga xos an'anaga ega. Badiiy asarlarda payg'ambarlar obrazi orqali xalqning har tomonlama mukammal shaxs haqidagi qarashlari bayon etiladi. Shu sababli xalq orasida va folklorda payg'ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar haqida yaratilgan ko'plab rivoyatlar bor. Mazkur rivoyatlarda payg'ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar qilgan ishlar, ularning karomatli deb bilgan muqaddas narsa-buyumlar bilan bog'liq voqea-hodisalar tasvirlanadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, payg'ambarlar va muqaddas avliyolar, anbiyolar obrazi oddiy odamlar tasviridan jiddiy farqlanadi. Shu sababli rivoyatlarda ushbu obrazlarning mifik xarakterga ega sifatlari ko'proq bayon etiladi. Bunga misol sifatida qoraqalpoq folklorida "Házreti Áliydiń pushaymani", "Házreti Áliydiń ashıwı", "Házreti Áliydiń jaqsılıǵı", turkman folklorida "Házireti Áliy", ingliz folklorida "Avliyo Osita" ("Saint Osyth (Osgyth)", "Avliyo Georgiy" ("St George") kabi tarixiy rivoyatlarni keltirish mumkin.

Tarixiy rivoyatlarda hukmdor, lashkarboshi yoxud jangchi obrazlari alohida mehr-muhabbat va ko'tarinki ruhda bayon qilingan. Masalan, qoraqalpoq folkloridagi "Ernazar Alako'z – No'ker" nomli rivoyatda Ernazar Olako'z xalq botiri sifatida tasvirlangan. Bunday tarixiy shaxslarning rivoyatlarda badiiy tasvirlanishi ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlariga ham xos. Masalan, ingliz folklorida Robin Gud, Qirol Artur, Xerevard Ueyk, Boudika (Robin Hood, King Arthur, Hereward the Wake, Boudica) va boshqa tarixiy shaxslar haqida so'z yurituvchi rivoyatlar mavjud. Jumladan, Qirol Artur haqidagi rivoyatlardan birida u shunday ta'riflanadi: "Agar qadimgi davrdagi Britaniya g'oyasini ifoda etuvchi birorta afsona bo'lsa, bu ham Qirol Artur haqidagi afsona bo'lsa kerak. Aytishlaricha, Britaniya qirollarining eng mashhuri Artur 5-asr oxiri va 6-asr boshlarida mamlakatni sakson bosqinchilaridan himoya qilgan va u Britaniyada afsonaga aylangan ko'plab hikoyalarning asosiy mavzusi bo'lgan"¹¹.

Rivoyatda Qirol Arturning qahramonliklarini bayon etuvchi tarixiy haqiqat xalq tasavvurida o'ziga xos tasvirlangan. Natijada Qirol Artur obrazi bir qancha rivoyatlarda paydo bo'lgan. Ularning sujet tizimida ingliz folklorining ko'plab an'anaviy motivlari uchraydi. Bunday rivoyatlarda Qirol Arturning qilgan qahramonliklari o'ziga xos tarzda aks ettirilganini anglash mumkin.

Qoraqalpoq va turkman folklorida mashhur tabiblar obrazi tasvirlangan rivoyatlar ham keng o'rin egallaydi. Masalan, "Hákim Uliqpanniń balasın

¹¹ Dragons and Maidens: 7 Enduring British Legends that Continue to Fascinate. <https://www.oxford-royale.com/articles/british-legends/>

úylendiriwi”, “Aplatun táwipligi hám Alastunnıń tapqırlıǵı haqqında”, “Luqman Xákim” va boshqalar.

Xalq folklorida shoir va baxshilar haqida yaratilgan tarixiy rivoyatlar ham keng tarqalgan bo‘lib, o‘ziga xos, alohida mavzuviy guruhni tashkil qilgan. Ularda atoqli shoir yoki baxshining boshidan kechirgan tarixiy sarguzashtlari, hodisalari, tarjimayi holi real ko‘rinishda hikoya qilinadi. Shu sababli tarixiy rivoyatlarning bu turida shoir va baxshi, qissaxon obrazlari ham yaratilgan. Masalan, qoraqalpoq folklorida “Berdaq shayır hám Ájiniyaz shayırdıń aytısı”, turkman folklorida “Maxtumquli”, ingliz folklorida “Buyuk Alfred” (“Alfred the Great”) nomli tarixiy rivoyatlarni keltirish mumkin.

Ushbu bo‘limda xalq og‘zaki ijodidagi tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq tarzda shakllangan yer-makon nomlari, qal‘alar haqidagi rivoyatlar qoraqalpoq folklorida “Ayazqala”, turkman folklorida “Soltan Sanjar Mazi”, ingliz folklorida “Stounxendj” (“Stonehenge”) nomli rivoyatlar misolida qiyosiy o‘rganildi.

Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlarda shaxsning insoniylik fazilatlari yuksak darajada ta‘riflanadi, ideallashtirilib, buyuk siymo ekanligi aks ettiriladi. Bu masalani obyekt qilib olingan xalqlar folklori misolida qiyosiy o‘rganish ularning o‘ziga xos va mushtarak jihatlarni yuzaga chiqaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tarixiy rivoyatlarda sujet va kompozitsiya tipologiyasi**» deb nomlanib, qoraqalpoq, turkman va ingliz folkloridagi tarixiy rivoyatlarda sujet va kompozitsion tuzilishning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortildi, tipologik belgilari o‘rganildi.

Bobning «**Tarixiy rivoyatlarda sujet tipologiyasi**» deb atalgan birinchi bo‘limida tarixiy rivoyat sujetida tarixiy shaxslar bosh qahramon yoki epizodik personaj sifatida kelgani va o‘ziga xos badiiy funksiyani bajarganligi haqidagi masalalar qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori asosida qiyosiy aniqlandi.

Rivoyatlarda tarixiy shaxs obrazi xalqni himoya qiluvchi vatanparvar, mardonavor, uddaburon, dono shaxs sifatida tasvirlanadi hamda undagi insoniylik fazilatlarini ulug‘lash, xalqi uchun qilgan fidokorona ishlarini badiiy tasvirlash orqali ideal qahramon darajasiga ko‘tariladi. Shuning uchun xalq tarixiy shaxslarining prototip obrazini yaratishga erishadi. Masalan, Sharqda saxovatpesha, insonparvarlikning ramzi sifatida xalq orasida keng tarqalgan “Hotamtoy” nomli mashhur tarixiy rivoyat mavjud. Qoraqalpoq, turkman, tojik, arab folklorshunosligida “Hotamtoy” rivoyatining o‘ziga xos xususiyatlari, paydo bo‘lishidagi manbalar, uning sujet qurilishidagi asosiy motivlar va personajlar, Hotamtoy obrazining mohiyati haqida har xil fikrlar, ilmiy qarashlar bildirilgan. Hotamtoy obrazi Sharqda qo‘li ochiq inson obrazi sifatida gavdalanadi. Hotamtoyning kengfe‘lligi, nochorlarga yordam berishi, saxovatpeshaligi haqidagi rivoyatlar og‘zaki va yozma manbalarda el orasida saqlanib qolgan. “Hotamnoma”da keltirilgan rivoyatlarning matnini qiyoslab qaraganimizda an‘anaviy epik sujetlar tuzilishiga xos quyidagi tipologik motivlar ko‘zga tashlandi:

- 1) Hotamning saxiyligi va doim odamlarga xayr-ehson qilishi;

- 2) Hotamning sabr-bardoshi bilan qiyinchiliklarni yengib o'tishi;
- 3) Hotamning hech bir jonzotga ozor bermay, ularga yordam berishi;
- 4) Hotamning donoligi va hayotda murakkab masalalarni yecha olishi orqali ko'plab odamlarning turmush sharoitining yaxshilanishi va h.k.

Hotamtoy obrazi haqida "Qaraqalpaq folklori" 100 jildligida "Xatam-Tay" nomli dostonlar bo'limida ham bayon qilingan. Bu doston qoraqalpoq jirovi Qurbanbay jirov Tajibayev ijro qilgan variant bo'lib, M.Seytniyazov tomonidan yozib olingan (1956-y.). Demak, "Xatam-Tay" rivoyati qoraqalpoq folklorida epik sujetlar taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir etganini kuzatish mumkin. Ya'ni "Xatam-Tay" dostonining turmush-tarixiy asoslari mazkur nomdagi rivoyatga bog'liq ekani ko'zga tashlanadi.

Qoraqalpoq folklorida qahramonlik eposi sifatida maydonga kelgan "Xatam-Tay" dostoni Hotamtoyning saxiyligi orqali real tarixiy voqea-hodisalarning epik ifodasi natijasida yuzaga kelgan. Unda bayon etilgan voqea markazida umr bo'yi bor narsasini xalqidan qizg'anmagan, yetim-yesirlarni qo'llab-quvvatlagan, xalqi uchun, hattoki butun mol-dunyosidan ham kechishga tayyor, mard, oliyjanob, saxiy odam Hotamtoy obrazi turadi. Xalq orasida mashhur bo'lgan bunday asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar real tarixiy asoslarga ega ekanligi ko'zga tashlanadi. O'z xalqini yaxshi ko'rgan Hotamtoyning saxiyligi haqida dastlab hangomalar paydo bo'lgan. Bu hangomalarda Hotamtoyning saxiyligi ta'rif qilinadi. Keyinchalik shu xildagi rang-barang tarixiy hangomalarning keng epik planda aytilishi natijasida roviylar, baxshilar repertuarida "Hotamtoy" dostoni yaratilgan bo'lishi mumkin. Zubayr ibn Bakkar Abulfaraj al-Isfag'oni xabarchilaridan biri shu xil xalq hangomalari mazmunini eshitib, ularni hikoya tarzida bayon qilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Hotamtoy haqidagi rivoyatlarning bir qancha ishlarda bayon qilinishi, bu rivoyat sujetining keng tarqalganligi va arab-fors, shuningdek, turkiy xalqlar orasida ham mashhur bo'lganligini ko'rsatadi.

Hotamtoy haqidagi doston sujetining ba'zi motivlari, ya'ni xalq dostonlari uchun tipologik hodisa hisoblangan an'anaviy sujet unsurlari qoraqalpoq xalq dostonlari sujet tuzilishida ham uchraydi. Masalan, Hotamning dunyoga kelishi, ya'ni tug'ilish motivi, bosh qahramonning kambag'alligi, uning go'zal qizni ko'rib qolishi va oshiq bo'lishi motivi, sinash motivlari o'z navbatida "G'arib Oshiq", "Tohir va Zuhro" va boshqa xalq ishqiy-sarguzasht dostonlarida ham uchraydi.

Bundan tashqari mazkur bo'limda Murali-Sher va Sultan Suyin, Qirol Artur, Xerevard Ueyk haqidagi tarixiy rivoyatlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning sujet tipologiyasi masalalari yoritib berilgan.

Bobning «**Tarixiy rivoyatlar kompozitsiyasining tipologik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bo'limida tarixiy rivoyatlarning sujet, motiv va kompozitsion qurilishi haqida so'z yuritilib, ular qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori materiallari asosida qiyosiy tahlil qilindi, kompozitsion qurilishidagi o'xshashlik va o'zgachaliklar yoritildi.

Folklorshunoslik ilmidan ma'lumki, xalq ijodiyotining epik janrlaridan biri bo'lgan rivoyatlarning ikki xil tasnifi bo'lib, ularning birinchisi tematikasiga,

ikkinchisi badiiy-shakliy tuzilishiga ko‘ra ajratiladi¹². Shu sababli rivoyatlarning badiiy tuzilishi, ya’ni kompozitsiyasi o‘ziga xos umumiy yaxlit tizim sifatida ko‘zga tashlanishi ma’lum. Chunki boshqa epik janrlar kabi rivoyatlar ham poetik qurilishga ega bo‘lib, o‘ziga xos kompozitsion belgilari va bayon uslubiga ko‘ra folklorning boshqa janrlaridan, ya’ni afsona, ertak va hokazolardan ajralib turadi. Adabiy-tarixiy asarlardagi kichik janrlar poetikasi tadqiqotchisi M.Abdullayeva adabiy-tarixiy rivoyatlarning asosiy qismini tarixiy rivoyatlar tashkil etishini alohida ta’kidlab, ularning sof rivoyat janriga oid asarlardan farqlanishini, bu esa muallif tomonidan tarixiy shaxslarning “zikri”, “voqeasi”, “bayoni”, “dostoni”, “hikoyasi”, “hikoyati”, “qissasi” kabi adabiy muqaddimalar orqali bayon etiladi, deb uqtiradi¹³.

Ilmiy tadqiqotlar va tarixiy rivoyatlar matnlariga e’tibor berganimizda ularning boshqa epik janrlar kabi bir qancha sujet motivlarining mantiqiy bog‘liqligidan iborat bo‘lgan qurilishga ega ekani oydinlashadi. Albatta, bu kompozitsion birlikni yuzaga chiqarishda an’anaviy stilistik shakllar bilan birga sujet bo‘lakchalari ham katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Rivoyatlar tarkibida an’anaviy epik motivlar va ushbu motivlarning badiiy ifodalariga asoslangan sujetlar badiiy yaxlitlikni ta’minlashda, izohlashda katta o‘rin egallaydi. Shuningdek, ular rivoyatlar poetikasida ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ixcham va keng diapazonlilik kasb etadi. Shu sababli rivoyatlarni o‘qiganimizda ba’zilarining hajmi qisqa, ayrimlari esa katta bo‘lib voqealar keng bayon qilingan bo‘ladi. Shuning uchun ham olimlar rivoyatlarni turlarga bo‘lganda uning qurilishi va estetik vazifalarini hisobga olib, qisqa sujetli va keng – murakkab sujetli rivoyatlar ekanini ta’kidlaydi. Albatta, oddiy sujetli rivoyatlarning hajmi ham kichik bo‘lib badiiy yetuk bo‘lmasligi mumkin, biroq u ko‘proq bayondan iborat bo‘ladi, sujeti ixcham bo‘lib, ikki yoki uch epizoddan tashkil topgan, g‘oyaviy mazmuni aniq tasvirlangan bo‘ladi. Masalan, qoraqalpoq folklorida “Arastudin Iskenderge wasiyati” nomli rivoyat bor. Bu rivoyatda tarixiy shaxslar hisoblangan dono Arastu va Iskandar podsho haqida hikoya qilinadi. Ularning dialoglarida donolik va podsholik parallel tasvirlanib, adolat bor joyda yovuzlik bo‘lmasligi haqidagi g‘oyalar bayon qilinadi. Rivoyatda tasvirlangan voqealar hajman kichik bo‘lsa-da, unda katta mazmun aks ettirilgan. Shu bilan birga, unda hayot haqiqati, ya’ni Iskandarning zabt etuvchilik harakatlari voqealar zanjirining mantiqiy bog‘lanishini ta’minlagan. Shuningdek, voqea va hodisa sujeti finalida yechuvchi rol o‘ynab, emotsionallikni ham oshirgani kuzatiladi. Ya’ni ustoz Arastuning nasihati Iskandar podshoni yovuzlikdan qaytargan, chunki u ustozni aytgan fikrlarni o‘ylab ko‘radi va ijobiy yechim qabul qiladi. Rivoyatning sujet hajmi kichik bo‘lsa-da, kompozitsiya jihatdan mustahkamligi ko‘zga tashlanadi. Keltirilgan rivoyat matnida an’anaviy sujetlar tuzilishiga xos unsurlardan biri – safarga ketish motivi mavjud. Bu esa tarixiy mavzudagi folklor asarlari uchun tipik hodisa bo‘lib hisoblanadi. Bu turkman folkloridagi “Iskandar shoxli” (“Iskender shaqi”) nomli

¹² Гусев В.Е. Эстетика фольклора. 1967. – С. 123.

¹³ Абдуллаева М. Адабий-тарихий асарларда кичик жанрлар поэтикаси // фил. ф.б. фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2021. – Б. 20.

rivoyat bilan qiyoslanganda aniq ko‘rinadi. Rivoyatda Iskandar podsho sujet asosi qilib olingan va sujet ham juda ixcham. Unda ifodalangan mazmun podsho obrazi bo‘lib, jahonni egallasang ham, odamga jabr qilma, sening birgina siring bo‘lsa ham, u baribir olamga yoyiladi, degan g‘oyalar aks ettirilgan. Mazmuni ifodalashda sujetning ixcham bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, badiiylikni to‘liq ta‘minlay olgan. Ingliz folkloriga diqqat qaratganimizda, podsho timsoli “Arturning qirol bo‘lishi”, Robin Gud haqidagi rivoyatlar biz tahlilga tortgan rivoyatlarga juda yaqin ekanini kuzatdik. Masalan, “Arturning qirol bo‘lishi” tarixiy rivoyatida hayot haqiqati voqealari qisqa bayon etilgan. Unda qirolning zaharlanib o‘ldirilishi konfliktning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi va sujet rivojiga asos yaratadi. Shu bilan birga, rivoyatda qirolning zaharlanib o‘ldirilishi motivi turkiy folklordagi epik janrlarda, jumladan, rivoyatlarda ham uchraydi. Shu jihatlar qiyoslab qaralganda qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori rivoyatlarining spetsifikasida tipologik o‘xshashliklar bor degan fikr tug‘diradi. Yoki Robin Gud haqidagi “Robin Gud afsonaviy qahramon” (“Robin Hood legendary hero”) tarixiy rivoyatlarda ham yaxshilik va yomonlik masalalari talqin qilinadi¹⁴. Unda Robin Gudning yaxshilik uchun hukmron doira vakiillari bilan kurashlari, xalq g‘amini o‘ylashi tasvirlanadi. Manbalarda keltirilishicha, Robin Gud XIV asrda yashab o‘tgan degan ma‘lumotlar uchraydi. Uning eng yirik dushmani markaziy hokimiyatning mahalliy vakili Nottingem sherifi bo‘lgan.

Rivoyatlar genezisiga e‘tibor berganimizda ularning eng qadimgi namunalarining sujeti juda qisqa, ixcham bo‘lib, keyinchalik to‘ldirilib borilganini ko‘rish mumkin. Rivoyatlarning keng – murakkab sujetli ko‘rinishi ixcham, oddiy sujetli rivoyatlarga qaraganda hajmi katta, sujeti bir qancha an‘anaviy motivlardan iborat bo‘lishi haqida olimlar ta‘kidlab o‘tgan edi¹⁵. Ayrim rivoyatlarning sujeti bir yoki ikki epizoddan iborat. Biroq ular haqiqiy turmush voqealarini tasvirlashi bilan ertaklardan ajralib turadi. Ba‘zi rivoyatlar esa afsonalarga ham o‘xshaydi. Ammo afsona voqea-hodisalarni g‘ayritabiiy, sirli, xayoliy tarzda ifodalashi bilan rivoyatlardan farqlanadi.

Tarixiy rivoyatlarning sujeti ham uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi kirish, ikkinchisi epik bayon, uchinchisi yechim hisoblanadi. Rivoyatlarning kompozitsion qurilishi haqida so‘z ketganda olimlarning ta‘kidlagani kabi ularni: ekspozitsiya – badiiy muqaddima bo‘limi, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim kabi badiiy unsurlar tashkil qilishini ta‘kidlash o‘rinli. Sujetning kirish qismida voqea bo‘lgan o‘rin va vaqt, epik bayon qismida epik xabar berish, yechimda esa ushbu xabarni dalillovchi ustuvor ma‘lumotlar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ayrim tarixiy rivoyatlar sujetida mif, afsona, ertak, qo‘shiq va boshqa detallarning aralashib kelishi ko‘zga tashlanadi. Bu fikrlar orqali obyekt qilib olingan xalqlar folklori asosida qiyosiy tahlillar chiqarildi.

¹⁴ <https://www.britannica.com>

¹⁵ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоков Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б.175.

Umuman olganda, tarixiy rivoyatlarni qoraqalpoq, turkman va ingliz folklori asosida qiyoslash ularning sujet, motiv va kompozitsion qurilishida o'xshashliklar bilan birga o'zgachaliklarning bor ekanligini tasdiqlaydi.

